



ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2022-yil, 6-son (136) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

**BOSH MUHARRIR**

**R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:**

**H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

**A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

<b>S. S. G'ULOMOV</b>	- O'zFA akademigi
<b>M.Q. MUXIDDINOV</b>	- fil.f.d., professor (SamDU)
<b>SH.A.HASANOV</b>	- fil.f.d., professor (SamDU)
<b>S.A.KARIMOV</b>	- fil.f.d., professor (SamDU)
<b>N. Sh. SHODIEV</b>	- ped.f.d., professor (SamDU)
<b>M.X.LUTFULLAYEV</b>	- ped.f.d., professor (SamDU)
<b>HIROAKI HUZIE</b>	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
<b>A.B.PARDAYEV</b>	- fil.f.d., professor (SamDU)
<b>SH.Y.ZIYODOV</b>	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
<b>J.Y.YAXSHILIKOV</b>	- f.f.d., professor (SamDU)
<b>SH.SH.NEGMATOVA</b>	- f.f.d. professor (SamDU)
<b>N.U.ARABOV</b>	- i.f.d., professor (SamDU)
<b>B.E.ERGASHEV</b>	- t. f. d., professor (SamDU)
<b>B.S.G'OYIBOV</b>	- t.f.d., dotsent (SamDU)
<b>D.Q.USMONOVA</b>	- i.f.n., dotsent (SamDU)
<b>F.SH.RASHIDOVA</b>	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
<b>O.S.YUSUPOVA</b>	- f.f.n., dotsent (SamDU)
<b>O.S.QODIROV</b>	- p.f.n., dotsent (SamDU)
<b>S.I.MUXIDDINOV</b>	- t.f.f.d., (PhD) (SamDU)

**Obuna indeksi** – yakka tartbidagi obunachilar uchun - **5583**,  
tashkilot, korxonalar uchun - **5584**

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

<b>FILOLOGIYA/PHILOLOGY</b>	
<b>Вохидова Н.А., Ташбекова Д.И.</b> <i>Взаимосвязь морфемного состава и лексических единиц в русском языке</i>	4-7
<b>Qodirova F.Sh.</b> <i>Zamonaviy san'atshunoslik diskursi terminologiyasi: termin-realiyalar</i>	8-11
<b>Xusanova Z.</b> <i>Virtual dunyodagi laqab –nikneymlar xususida</i>	12-17
<b>Muminova M.A.</b> <i>O'zbek tilining lingvokulturologik tadqiqi natijasida o'rganilgan muammolar</i>	18-22
<b>Чергинская И.А.</b> <i>Роль дополнительных средств связи в построении сложноподчиненных предложений с придаточной условия в русском языке</i>	23-25
<b>Rahmatova D.A.</b> <i>Vohid Abdullayev adabiy-ilmiy qarashlarining badiiyati</i>	26-30
<b>Раджобова З.Ч.</b> <i>О некоторых традиционных и новых источниках новообразований современного русского языка</i>	31-38
<b>Kurbanova Ch.</b> <i>Abdulla Oripov she'riyatida poetik mazmun va novatorlik</i>	39-44
<b>Kazakov I.R.</b> <i>Frazeologik birliklarda madaniyatlararo xususiyatlar</i>	45-50
<b>Yakubova N.I.</b> <i>Ingliz, o'zbek va rus tillarida ko'p komponentli turistik terminlar modellarining tasnifi</i>	51-54
<b>Fayziyeva A.A.</b> <i>Ingliz shaxsiy rivojlanish lingvodiskursida hayot bilan bog'liq kontseptual metaforalar</i>	55-59
<b>To'rayeva D.M.</b> <i>Ingliz punktuatsiyasining xususiy evolyusiyasi va zamonaviy an'analari</i>	60-65
<b>Elmuradova G.K.</b> <i>Diskurs tushunchasining lingvistik talqini va turizm matnlarining diskurs tahlili</i>	66-70
<b>Nashirova Sh.B.</b> <i>Inglizcha-o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlar o'quv lug'atida o'quv-metodik qurilma va mashq-ilovani shakllantirishning lingvodidaktik asoslari</i>	71-75
<b>Латипов О.Ж.</b> <i>Коннотации вокруг лексемы «рыба» в разнотемных языках</i>	76-81
<b>Tursunov M.S.</b> <i>O'zbek tili milliy korpusini yaratishda dastlabki ma'lumotlar</i>	82-88
<b>Хантова Ф.С.</b> <i>Паремии в лингвистике</i>	89-93
<b>PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS</b>	
<b>Axmedov F.Sh.</b> <i>Xalqaro va milliy darajadagi kurashchilar musobaqaoldi psixologik holati tahlili</i>	94-98
<b>Usmonov B.Sh., Kodirov M.K.</b> <i>Ta'lim 4.0 - raqamli transformatsiya omillari</i>	99-105
<b>Xayitov O.A.</b> <i>Xor sinfi darolarida dirijyorlik texnikasining ahamiyati</i>	106-110
<b>Ismailov A.R.</b> <i>Til ta'limi yo'nalishidagi otm o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini takomillashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi</i>	111-113

<b>SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY</b>	
<b>Abdullayev A.G., Tursunboyev J.Sh.</b> <i>Yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvining nazariy va huquqiy asoslari</i>	114-118
<b>Surobova R.Z.</b> <i>Parlament va jamoatchilik nazorati demokratik jamiyatning muhim omili</i>	119-122
<b>Navruzov O.E.</b> <i>Yoshlar ijtimoiylashuvi va ta'lim mo'ljalarining shakllanishida axborot-media vositalarining o'rni</i>	123-127
<b>PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY</b>	
<b>Мусинова Р.Ю.</b> <i>Факторы эффективности процесса формирования и развития креативной саморегуляции у будущих педагогов</i>	128-134
<b>Xashimova S.</b> <i>Imkoniyati cheklangan o'smirlarda emotsional zo'riqishlar namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik xususiyatlar</i>	135-139
<b>Боймирзаева Д.Д.</b> <i>Агрессивное поведение детей как социальная, педагогическая и психологическая проблема</i>	140-143
<b>Urazbayeva D.A.</b> <i>Onkologik bemorlarda emotsional va kognitiv soha o'zgarishlari namoyon bo'lishi</i>	144-147
<b>Mualliflarga</b>	

UDK: 42:415

**INGLIZ SHAXSIY RIVOJLANISH LINGVODISKURSIDA HAYOT BILAN BOG'LIQ  
KONSEPTUAL METAFORALAR****A.A.Fayziyeva***Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilida yaratilgan shaxsiy rivojlanish adabiyotlarida qo'llanilgan hayot konseptiga oid konseptual metaforalar tahlili keltirilgan. Insonning hayot kabi mavhum tushunchalarni anglashi, uni kommunikasiyada verballashtirishi turli konseptual metaforalar yordamida amalga oshiriladi, jumladan, hayot – sayohat, hayot – yo'l, hayot – hikoya, hayot – kurash kabi metaforik modellar tahlil qilingan asarlarda eng ko'p uchradi.

**Kalit so'zlar:** konseptual metafora, metaforik model, hayot konsepti, shaxsiy rivojlanish, metafora.

**Conceptual metaphors of life in the english self-improvement discourse**

**Abstract.** This article presents an analysis of conceptual metaphors related to the concept of life used in personal development literature created in English. A person's understanding of abstract concepts such as life and its verbalization in communication is carried out with the help of various conceptual metaphors, including metaphorical models such as Life is a journey, life is a road, life is a story, life is a struggle are the most common in the analyzed works.

**Keywords:** conceptual metaphor, metaphorical model, concept of life, self-improvement, metaphor.

**Концептуальные метафоры жизни в английском дискурсе саморазвития**

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ концептуальных метафор, связанных с концепцией жизни, используемых в литературе по личностному развитию, созданной на английском языке. Понимание человеком абстрактных понятий, таких как жизнь, и ее вербализация в общении осуществляется с помощью различных понятийных метафор, в том числе метафорические модели типа жизнь – путешествие, жизнь – дорога, жизнь – история, жизнь – борьба являются наиболее распространенными в анализируемые произведения.

**Ключевые слова:** концептуальная метафора, метафорическая модель, концепт жизнь, саморазвитие, метафора

Kognitiv tilshunoslikda borliqdagi voqelikni turkumlash masalasi eng asosiy muammolardan biri hisoblanib, xususan bu o'rinda metafora inson ong va tafakkurining o'xshash imkoniyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy kognitivistikada metafora asosan dunyoni bilish, uni tasniflash va tushuntirish, kontseptuallashtirish hamda baholash kabi vazifalarni amalga oshiruvchi tafakkur jarayoni sifatida tavsiflanadi[7]. Insoniyat tafakkurining o'zagi bo'lmish olamning lisoniy manzarasi qismlarini bir-biriga taqqoslash imkoniyatini o'zida voqelantira olgani sababidan ham metaforik modellar tahlili kognitiv paradigmadagi tadqiqotlar uchun qiziqish uyg'otadi. Zamonaviy psixolingvistikada olamning ham lisoniy, ham konseptual manzaralarining o'zaro aloqasini inobatga olish zaruriy omil sanaladi. Olamning konseptual manzarasini yaratishda tafakkurning turli shakllari qatnashadi, bu esa o'z o'rnida konseptual olamning lisoniy olamdan ko'ra rang-barang va boyroq bo'lishiga ta'sir qiladi.

B.A.Serebryannikov tavsifiga ko'ra, olamning konseptual manzarasi "insonning dunyoqarashi asosida yotgan, uning dunyo bilan turli xil aloqalari jarayonida yuzaga keladigan va insonning barcha ma'naviy faoliyatining natijasi bo'lgan yaxlit global tasvir"dir[12].

Yu.L. Obolenskaya fikricha, olamning konseptual manzarasi ular yashab turgan davr, ular tegishli bo'lgan ijtimoiy va yosh guruhiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ma'lum sharoitlar ta'sirida bir tilda so'zlashuvchi insonlarning konseptual olamlari boshqa tilda so'zlashuvchilarnikiga qaraganda qaysidir ma'noda yaqinroq bo'ladi. Shunday ekan, olamning konseptual manzarasi o'zida til tizimining "umumiy kognitiv model"ini voqelantiradi[9].

Olamning lisoniy manzarasi tilning funksional, nominativ, obrazli, diskursiv vositalari,

shuningdek, tilning fonosemantikasi va lingvistik birliklarini baholash va sharhlash strategiyalari bilan yaratiladi.

Z.D.Popova hamda I.A. Sterninga ko'ra, olamning lisoniy manzarasi - bu "xalq taraqqiyotining ma'lum bir bosqichidagi voqelik haqidagi odamlarning til birliklarida mustahkamlangan g'oyalari to'plamidir". Olamning lisoniy manzarasi "tilning umumiy semantik makonini tashkil etuvchi lingvistik belgilarning ma'nolari shaklida mavjud"[11]. Olamning lisoniy tasvirini o'rganish tilga bo'lgan kognitiv yondashuv va kognitiv modellar tushunchalaridan tashqarida olib borish imkonsiz. Borliqdagi voqelikni tavsiflash va konseptualashtirish asosida olamning lisoniy manzarasi tushunchasi yotadi.

Olamning lisoniy va konseptual manzaralari tadqiqotida konsept tushunchasi Markaziy o'rin egallaydi. Lingvistikada konseptga berilgan ta'riflar orasida Kubryakovning mazkur ta'rifi konseptning xususiyatini ochib beradi: "konsept termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi".

Professor Sh.Safarov ham kognitiv tilshunoslik haqidagi risolasida konsept va tushuncha ta'riflarini farqlab, "konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi" deya izohlaydi[13]. Demak, konseptlar avval inson ongida obraz shaklida hosil bo'ladi, keyinchalik esa mazkur obraz tilga ko'chib, til birligi shaklini oladi.

Konseptlar, deya ta'rif beradi J. Lakoff, bu idrokning bevosita ishtirokida vujudga keladigan kognitiv modellarning elementlari[8]. Murakkab konseptlar inson tafakkurida mavjud fundamental konseptlar asosida yaratilgan kognitiv modellardir. Bunda tafakkur lisoniy birligi bo'lmish konsept "konseptual metafora" hamda "konseptual model" tushunchalarini o'zida voqelantiradi.

Yuqoridagi ikki atama izohiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, konseptual model - bu bir predmet sohasiga oid, uning tabiati, xususiyatlari va unga bog'liq jarayon qonuniyatlarini aks ettiruvchi yondash tushunchalardan iborat modeldir.

Kognitiv model haqida gap ketganda, uning quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunishini alohida e'tirof etish lozim:

- konseptual tizimlar bevosita inson idrokiga, shaxsning jismoniy va ijtimoiy tajribasiga asoslanadi;

- turli konseptual tizimlar metafora, metonimiya va "tafakkur tasvirlari"dan foydalanadi va tashqi voqelikni aniq aks ettirish doirasidan chiqib ketadi;

- kognitiv qayta ishlash jarayoni tushunchalarni shunchaki qo'shib yuborishdan ko'ra murakkabroq bo'lib, bunda jarayonning kechishi alohida konseptlarning tuzilishiga va unda qanday tushunchalar ishtirok etishiga bog'liq[10].

Y.B.Fedenyovning ta'kidlashicha, konseptual metaforalar nazariyasida metaforik modellashtirish asosiy o'rin egallaydi, uning mohiyati metaforik hukmlarning aniq ifodalangan ma'nosiga qo'shimcha bo'lgan yashirin parallel ma'nolarni ochishdir[14].

A.A.Prokopeva esa, metaforik modelni "asosiy kognitiv operatsiya sanab, unda bir tushunchani (konseptni), odatda aniqroq hissiy sohadan boshqasiga, ya'ni mavhumroq sohaga o'tkazish orqali dunyoni bilishning eng muhim usuli" sifatida ko'rib chiqilishi kerak, deb hisoblaydi.

A.Chudinovning metaforik modellarga bergan ta'rifiga ko'ra "metaforik model - bu tilida so'zlashuvchilar ongida rivojlanayotgan va yoki mavjud hamda ma'lum bir formula bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan konseptual sohalar o'rtasidagi aloqa sxemasi: X - Y. Misol uchun, inson - tabiat, inson - hayvon. Formulaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabat to'g'ridan-to'g'ri identifikatsiya sifatida emas, balki, o'xshashlik sifatida tushuniladi: X u ga o'xshaydi, inson tabiatga o'xshaydi[15].

A.Baranov ham metaforik modellar haqida o'z ilmiy nazariyasini ilgari surib, metaforik modelning shakllanishi "manba" (source domain) kognitiv tuzilmasi va "maqsad" (target domain) kognitiv tuzilmasining o'zaro ta'siriga asoslanadi, deya izohlaydi. "Metaforizatsiya jarayonida maqsadning ayrim sohaları manba sohasining shakliga ko'ra tuziladi, ya'ni "metaforik xaritalash" (metaphorical mapping) yoki "kognitiv xaritalash" (cognitive mapping) sodir bo'ladi"[6].

Metaforik modellashtirish tabiatiga ko'ra ikki xususiyatni o'zida namoyon etadi:

- metaforizatsiya yoki metaforalashish jarayonida tasvirni izlash intuitiv tarzda sodir bo'lsada, uning shakllanishi va obyekt modelining tasviriga moslashishi sof ongli va mantiqiy jarayondir. Metaforik model shakllangandan keyingina tushuntiriladi.

- metaforik nomlash jarayonida aniqlangan xususiyatlar ob'ekt xususiyatlarini tavsiflash uchun ahamiyatli bo'lish bilan birga, assosiativ aloqalar ob'ekt yoki vaziyatning dastlabki tasvirini tashkil qiladi. Shunday qilib, metaforik model matnda cheklangan miqdordagi til birliklari bilan ifodalangani holda o'zida mazmunan cheksiz sonli komponentlarni aks ettira oladi.

Demak, kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Chudinovning bu boradagi fikrlari o'rinli: "til tabiiy ravishda leksika, morfologiya va sintaksisga bo'linmaydigan ramziy birliklarning yagona butunligidir. Shuning uchun kontseptual metaforani tahlil qilishda nafaqat metaforalarning o'zi, balki qiyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda turli perifrazalar, metonimiya va boshqa obrazli vositalar, shuningdek, nafaqat so'zlarning o'zi, balki frazeologik birliklar, qo'shma otlar ham hisobga olinadi; nutqning turli sohalariga tegishli, leksik va grammatik kategoriyalar va semantik assosiasiyalar bilan bog'liq so'zlarga ham teng munosabatda bo'ladi. Zero, ma'noning turli daraja yoki tarkibiy farqlardan ko'ra ularning kontseptual yaqinlashuvi ancha muhimroq omil sifatida qabul qilinadi"[16]. Bundan anglashiladiki, metaforik modellarning voqelanishi inson ongining kognitiv jarayonlarida oliy o'rinni egallaydi. Ushbu jarayon insonning jismoniy, ruhiy, hissiy, ijtimoiy tajribalaridan kelib chiqqan holda intuitiv tarzda amalga oshadi hamda bir kontsept o'ziga tegishli turli tushunchaviy guruhlar bilan boshqa kontseptga kognitiv xaritalash orqali o'tkaziladi.

Shaxsiy rivojlanishga oid asarlarda voqelangan kontseptual metaforalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda hayot kontsepti bilan bog'liq metaforik modellarning bir necha turlari mavjudligi, qayta-qayta qo'llangani ko'zga tashlandi. Bu esa mazkur diskursning tshz olidga qo'ygan vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, S.Dolbi o'zining "Self-help books: Why Americans keep reading them" nomli asarida shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning maqsadiga to'xtalib o'tarkan, shaxsiy rivojlanish asarlarining mazmuni turfa xil hamda turli sohalarni qamrab oladi. Yangi tushunchalar, g'oyalar, olam va samo haqidagi savollarga yangi javoblar, shu bilan birga o'quvchining hayotiga mamnunlik olib kelishga sabab bo'luvchi munosabat va xulq-atvorni o'zgartirishga oid takliflardan iborat ko'rinishda qayta qayta o'zini rivojlantirishga bog'liq holda yaratiladi, deydi[2].

E'tiborga molik tomoni shundaki, har qanday shaxsiy rivojlanishga oid kitobning tub zamirida o'quvchining hayotini o'zgartirish g'oyasi yotadi. Shunday ekan, inson hayoti o'z markazida turgan bunday asarlar diskursida hayot kontseptiga doir metaforalarning uchrashi tabiiy. Statistika jihatdan ham tahlilga tortilgan misollarning ko'pchiligini hayotning ingliz shaxsi ongida voqelangan turli xususiyatlari namoyon bo'lgan metaforik modellar tashkil etadi.

LIFE IS A JOURNEY (hayot – sayohat) metaforik modelida inson hayoti bir manzildan boshqa manzilga boradigan sayohat kabi tushuniladi. Bunda manba soha (source domain) sayohat bo'lib, aynan sayohat bilan bog'liq jarayonlar, sayohat ishtirokchilari, maqsadi va boshqa bir qator mazkur tushuncha atrofida aylanuvchi so'zlar maqsad soha (target domain)ga mental uzatiladi yoki ko'chirib o'tiladi.

1-jadval

Sayohat	→	Hayot
sayohatchilar	→	hayot kechiradigan odamlar
yo'lda harakat qilish	→	hayot kechirish
manzil(lar)	→	hayotning maqsad(lar)i
manzil(lar)ga eltuvchi turli yo'llar	→	maqsad(lar)ga erishishning turli usullari
yo'lda bosib o'tilgan masofa	→	hayotda erishilgan taraqqiyot (progress)
yo'l bo'ylab lokasiyalar	→	hayot bosqichlari
yo'ldagi qo'llanmalar	→	hayotdagi yordamchilar yoki maslahatchilar

Jadvaldan ko'rinib turganidek, hayotning ingliz xalqi tafakkuridagi mental tasviri, undagi stsenariyalar ma'lum ma'noda sayyohatdek shakllangan. Quyidagi misollarda bu o'z aksini topganini ko'rish mumkin:

(1) Just as I was lost on the road, I was *lost in life* as well – unsure of exactly *where I was going* or why I *was moving in that direction* (The Café on the Edge of the World, 6).

(2) When you train yourself, through repetition and practice, to overcome procrastination and get your most important tasks completed quickly, you will move yourself onto the *fast track in your life* and career and *step on* the accelerator (Eat that frog, 15).

Birinchi misolda hayotning aynan sayohat singari persepsiyasi yaqqol ko‘rinib turibdi, sababi lost in life (hayotda yo‘qolmoq), going (borayotgan), was moving in that direction (o‘sha yo‘nalishda harakatlanayotgan) kabi iboralar sayohat uchun ham, hayot uchun ham birdek qo‘llanilishi mumkin. Ularning qo‘llanilishi tilda tizimlilikni hosil qilib, so‘zlovchilar ongida ularning yashab turgan sharoiti, ular tegishli bo‘lgan madaniyat hamda tajribalarni aks ettiradi.

Ikkinchi misolda hayot - sayohat modelining subkategoriyasi LIFE IS A PATH / hayot – yo‘l metaforik modeli aks etgan. Insonning hayotda yashashi xuddi yo‘lda yurishga o‘xshatilib, manzillarga sekin yoki tez qadamlarda borish hayotiy vazifalarni nechog‘lik sidqidildan bajarishga bog‘liqligi o‘z isboitini topgan.

(1) Sure. You feel inspired to because they seem so...” I paused, looking for right words.

“*on the right path?*” Casey asked (Café on the Edge, 77).

(2) Be active in choosing your *own path*, or it will be chosen for you (Café on the Edge, 82).

Mazkur misollardan ko‘rish mumkinki, insonning hayoti, uning qabul qiladigan qarorlari yo‘lda yurish jarayoni tajribalaridan kelib chiqqan holda anglashiladi. To‘g‘ri qarorlar qabul qilish to‘g‘ri yo‘lda yurish, o‘z hayotini boshqarish o‘z yo‘lini tanlash demakdir, chunki inson o‘z hayotini o‘zi boshqarmas ekan, bu yo‘lni unga boshqalar tanlab beradi.

Shaxsiy rivojlanish asarlari mualliflari qo‘llaydigan strategiyalar odatda ular tomonidan ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlar va maslahatlarga rioya qilish orqali inson hayot yo‘lini topishi, to‘g‘ri yo‘lga tushishi, jadal tezlikda hayotiy maqsadlarga etishishi aynan konseptual metaforalar yordamida amalga oshiriladi, zero til va tafakkurning ajralmas qismiga aylangan konseptual metaforalarsiz bunday tasvirlarni tushuntirish imkonsiz.

Fikrimizning dalili sifatida Boldvin va sheriklari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotni keltiramiz. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan qator tadqiqotlarda ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linib, birinchi guruhga hayotning jabhalarini sayohatga analog tarzda ko‘rsatilgan topshiriq (hayotingizdagi qarorlar bir necha yo‘llar orasidan birini tanlash kabidir. Hayotingizda duch kelgan ushbu yo‘llardan biri haqida bir necha gap yozing), ikkinchi guruhga esa hayotiy sohalar haqida umumiy ma‘lumot berish (hayotingizda qabul qilgan qarorlaringizdan biri haqida yozing) topshirig‘i berildi. Keyin ishtirokchilarga hayotdan qoniqish va hayotdagi maqsad o‘lchovlari testi berildi. Natija shuni ko‘rsatdiki, hayotning metaforik tasviri berilgan topshiriqni olgan guruh natijalari hayotdan qoniqish hissining va hayotiy maqsadlari darajasining yuqoriligi aniqlandi[1].

Demak, hayotiy tajribalarni metaforik modellar orqali ifoda etish hayot singari mavhum tushunchalarning xususiyatlarini aniqroq anglashga yordam beradi.

Hayot – sayohat metaforasi faqat ingliz xalqi madaniyatiga xos va ingliz tilida leksikallashgan konseptual metafora deyish noto‘g‘ri. Boshqa tillarda ham mazkur konseptual metafora mavjud va Zoltan Kovechesh ta‘riflaganidek, metafora universalialariga misol bo‘la oladi[3; 25].

Hayotning ongimizdagi konseptualizatsiyasi uni turli shakllar, ssenariylarda akslantiradi. Hayotning boshqa xususiyatini ochib beruvchi konseptual metaforalardan biri bu LIFE IS A STORY / hayot – hikoya.

(1) The thing is, John, *life* is an amazing *story*. It’s that sometimes we forget we’re the *author*, and we can *write* it however we want (Café on the Edge, 92-93).

(2) The subject was The *Meaning of Life*. It was taught from experience (Tuesdays with Morrie, 4).

Birinchi misolda metaforik modelning metaforalar klasteri shaklida namoyon bo‘lishi story, author, write so‘zlarining bir o‘rinda kelishida ko‘rish mumkin. Hayotning boshlanishi hikoyaning boshlanishi, uning o‘z davomiyligi, hayotning oxirga etishi hikoyaning tugashi sifatida inson ongida kontseptuallashadi.

Ikkinchi misolda esa ushbu konseptual metaforaning yana bir ko‘rinishi Meaning of life (hayotning ma‘nosi) ko‘rinishida kelib, inson hikoya voqealari jarayonida mazmun va ma‘no topganidek, hayotda ham inson ma‘no izlaydi. Bu jarayon esa psixologiyada uzoq davrdan buyon inson tabiatining

fundamental qismi siqatida qaralib kelinadi.[4] inson ongida kontseptullashgan voqelik tilda ham verballashib, kontseptual metaforalar tarzida vujudga keladi.

Hayot sinovlariga qarshi chidam bilan bardosh berish, unga qarshi kurashish LIFE IS A BATTLE / hayot - kurash kontseptual metaforasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

(1) As you struggle to get caught up, new tasks and responsibilities just keep rolling in, like the waves of the ocean. Because of this, you will never be able to do everything you have to do (Eat that frog, 9).

Ya'ni inson hayotiy maqsadarga erishishga, vazifalarga etishib olishga harakat qilgan sayin, yangidan-yangi vazifalar, majburiyatlar paydo bo'lib ularning yuki insonni bosib qoladi. Bunda insonning hayoti doimiy kurash shaklini oladi. Metaforalarning verballashuvi insoniyat tarixiy, ijtimoiy tajribalariga asoslanishini hisobga olsak, hayotning kurash ekani nafaqat ingliz kontseptual olamida, balki boshqa xalqlar tilida mavjud bo'lishi tabiiy holat.

Hayot - kurash, raqobat. Bu kurashda kim kuchli bo'ladi? Aqlli, bilimli, mehnat qilgan. (Shavkat Mirziyoyev) [17].

Ko'rinib turibdiki, hayot - kurash kontseptual metaforasi o'zbek tilida ham aynan mavjud va kontekstga qarab u raqobat shaklini ham olishi mumkin.

### Adabiyotlar

1. Baldwin M, Landau MJ, Swanson TJ. Using metaphor to find meaning in life. Revision in preparation. University of Cologne, 2017.
2. Dolby S. K. Self-help books: Why Americans keep reading them. Illinois: University of Illinois Press. 2005.
3. Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation.*, Cambridge & New York: Cambridge University Press, 2005.
4. May R. Man's search for himself. WW Norton & Company, 2009.
5. Кубрякова Е. Когнитивный взгляд на природу частей речи // Словарь. Грамматика. Текст. — М., 1996.
6. Баранов А.Н. Предисловие редактора. Когнитивная теория метафоры почти 20 лет спустя / А.Н. Баранов // Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. - М., 2004.
7. Будаев Э. В. Становление когнитивной теории метафоры / Э. В. Будаев // Лингвокультурология. - 2007, №1.
8. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование / Дж. Лакофф // Язык и интеллект. — М: Прогресс, 1995.
9. Оболенская Ю. Л. Художественный перевод и межкультурная коммуникация: учеб, пособие / Ю. Л. Оболенская. — М.: Высш, шк., 2006.
10. Плотников И.В. Метафорические модели и их переводческие трансформации в художественном тексте: лингвокогнитивный аспект: диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Екатеринбург, 2018.
11. Попова З. Д. Язык и национальное сознание: вопросы теории и методологии / З. Д. Попова И. А. Стернин. - Воронеж : Изд-во ВГУ, 2002.
12. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / [Б. А. Серебренников, Е.С.Кубрякова, В. И. Постовалова и др.]; Отв. ред. Б. А. Серебренников; АН СССР, Ин-т языкознания. - М: Наука, 1988.
13. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti, 2006.
14. Феденёва, Ю.Б. Метафорическое моделирование в Российском политическом дискурсе / Ю.Б. Феденёва // Политический дискурс России-3: материалы рабочего совещания. —М., 1999.
15. Чудинов, А. П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации / А. П. Чудинов. — Екатеринбург : Изд-во УрГПУ, 2003.
16. Чудинов, А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитив. исслед. полит, метафоры (1991—2000) / А. П. Чудинов. - Екатеринбург: Изд-во УрГПУ, 2001.



## **MUALLIFLAR DIQQATIGA!**

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

## **MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!**

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar: nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

## **MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 11 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

## **MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:**

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.
- research.samdu.uz platformasiga maqolalar yuboriladi

E- mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY  
AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

Texnik muharrir

**Sh.Xoliqulov**

**Muharrirlar:**

**I.Sulaymonov**

- fil.f.n., dotsent

**E. Arziqulov**

- f.-m.f.d., dotsent

**O. Yusupova**

- fil.f.n., dotsent

**Mas'ul muharrirlar:**

**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.

**X. S. Haydarov** - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,  
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.  
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:  
[axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga  
29.12.2022 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.

Buyurtma raqami 390. Adadi 30 nusxa.

**Manzil:** 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

***SamDU bosmaxonasida chop etildi.***